

**PAHLAVON MAHMUD RUBOILYLARINING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI**

**Botirova Rayxon Abdurofiq qizi
Qarshi davlat universiteti magistri**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud ruboilyarining leksik-semantik xususiyatlari, shuningdek ruboilyarda qo'llanilgan turli sintaktik vositalar, mazmun va ifoda butunligi, murojaat birliklari, ohangdorlikni ta'minlovchi vositalarga e'tibor qaratilib, birma bir tahlil qilingan. Tahlil jarayoni shoir ruboilyarining eng sara na'munalari orqali amalgalashirilgan.

Kalit so'zlar: mazmuniy butunlik, mazmuniy maydon, takrorlar, epifora, murojaat birliklari, olmoshlar, alliteratsiya, assonans

Pahlavon Mahmud xalqimizning ruhan va jisman barkamol, tafakkur olami keng, suyukli farzandi edi. U Xorazm yurtida tug'ilib dunyoga dong'i ketgan, kuragi yerga tegmagan pahlavon va qalami o'tkir ruboynavis bo'lib yetishdi. Mardlik va oliyjanoblik fazilatlari Pahlavon Mahmud siymosida o'z tajassumini topdi. Buni biz uning ibratli hayot yo'lidan bilib olishimiz mumkin. Bu yo'l bizlarga asl mardlik raqib bilan bo'lgan kurashda emas, balki insonning o'z meni bilan bo'lgan kurashda namoyon bo'ladi deyotgandek bo'ladi.

Shoir sifatida bizga qoldirgan ijodiga esa yuksak baho berib kelinmoqda. Uning ruboilyari ushbu janrda yaratilgan asarlar ichida eng saralaridir. Pahlavon Mahmud ruboilyari xalq ichida juda mashxur bo'lib, davralarda yod o'qiladi:

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq
Yoinki bir asr zindonda yotmoq
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

Buning sababi ruboilyarning Qur'oni karim va hadisi sharifdan oziqlanib yaratilgani, shoirning hayotni teran kuzatishi mahsuli ekanligidir. Bundan tashqari Pahlavon Mahmud chuqur bilim, keng dunyoqarash va katta hayotiy tajriba egasidir. U ruboilyarini forscha bitgan. Forschadan esa To'xtasin Jalolov, Matnazar Abdulhakim, Muinzoda, Vasfiy, Boqir kabi mutarjimlar tarjima qilishgan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

Shoir ruboiylari til xususiyatlari jihatdan mukammal va pishiq yaratilgan. Ular leksik-grammatik, fonetik-fonologik, leksik-semantik va sintaktik vositalarga boydir. Jumladan ruboilar matnidagi aloqani taminlovchi vositalardan juda o'rini foydalanilgan. Bu kabi vositalarning qo'llanilishi mazmun va ifoda butunligiga tasir o'tkazmay izchillikni, ifodaviylikni taminlagan. Malumki, matndagi aloqani taminlovchi vositalardan mazmuniy butunlik ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki matnda mazmuniy butunlik bo'lmas ekan, u o'z o'quvchilariga ham ega bo'lmaydi. Quyidagi ruboyni olib qaraylik:

Dunyoning ishi asli azal jabr-u jafo,
Ko'rmaydi vafo ahliga mehrini ravo.
Men it bo'layin vafosi borga, chunki
It yaxshi kishidan, yo'q agar unda vafo.

Ushbu ruboiydagi it, vafo, jafo, ravo, dunyo, mehr tushunchalari bir mazmuniy butunlik, ya'ni mazmuniy maydonni tashkil qiladi. Ruboilar matnida bir qancha aloqani taminlovchi, gaplarni bir-biriga bog'lab turuvchi vositalar mavjud. Bunda takrorlar muhim rol o'ynaydi. Birinchi gapda qo'llangan affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror vositasidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takrorlar yordamida birikishning bir necha turlari mavjud va bu ruboiy matnlarida aks etgan. Masalan, shoir bir so'z birikmasi takrori asosida ta'kid va ohangdorlikka erishgan:

Gul yog'adi yuzlaringdan subhvor,
Gul yog'adi xulqingdan ham chun bahor,
Lahza sari rangga to'lib bu olam—
Gul yog'adi chehra ochib bu ro'zgor.

Ayni paytda takror misralar boshida kelayotgani uchun anaforaga ham misol bo'la oladi. Pahlavon Mahmud ruboilaridan anaforaga misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin:

Har bir kuni umringning yorug' yulduzdir,
Har bir kecha qadr-u har sahar Navro'zdir.
Har lahzasin e'zozla aziz umringning,
Har qancha qadrlasang ularni ozdir.

Biz shoir ijodidan epiforaga misollarni ham keltira olamiz. Bunda takror misra oxirida keladi:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

Umrimiz daraxtin past qilma, rabbi,
Borliq sharobidan mast qilma, rabbi,
O'zing karam birla mard yigitlarni
Nokaslarga zeridast qilma, rabbi.

Takrorlar xoh misra boshida kelsin xoh oxirida kelsin ruboioyning o'qilishliligini, ohangdorligini tasirchanligini va tezda yod olinishini taminlaydi. Ba'zan ruboioyning bir misradasigi takrorlar tasirchan uslubiy vazifa bajaradi:

Ulusga qayg'urur shoh emas, darvesh,
Zero u darveshdir, darveshdir, darvesh.
Buzuq devorlardan tashvish bor, lekin
Siniq ko'ngillardan ko'proqdir tashvish.

Yoki:

Dardmandam, dardmandam, butkul dardmandam,
Orazing shamidan o'rgulay har dam,
Gar vasling davlati tuyassar bo'lsa,
Surayin poyingga bu ro'yi zardam.

Quyidagi ruboioyda takrorlar bir vaqtning o'zida badiiy sanatni hosil qilgan bo'lib, shoir bir vosita yordamida ikki maqsadga erishgan:

Olam ishi boshida bo'lsaydi bir mard,
Nomardning boshidan chiqarardi gard.
Olam ishi doimo misli nard o'yin
Nayrang bilan yutadi mardlarni nomard.

Bu yerda mard va nomard so'zlari takrorlanib kelib, antitezani hosil qilgan.

Ruboaylor matnida qo'shimchalar ham takrorlanib kelgan. Bunday takrorlar esa talaygina:

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil,
Yo'lda quduq bordir ehtiyyoting qil,
Do'st uyida mehmon bo'lgan vaqtingda
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

Yoki:

O'tda ayniguchi serg'ash emasman,
Sof oltinman, misi barkash emasman,
Qaynoqman va sofman quyosh nuridek,
Oydek sovuq dog'lik barkash emasman.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

1-ruboiyda –da , –ni qo’shimchalari 2-ruboiyda esa –man qo’shimchasi takrorlanib ichki ohangdorlikni hosil qilgan. Ular yaqqol ko’zga tashlanmasa-da ohang va pauzalardan bilinib turadi va kuchli ta’kid hosil qiladi.

Murojaat birliklari ham matnni biriktirishda muhim sanaladi. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida- nutq jarayonida keng qo’llaniladigan, o’zarlo aloqa aralashuvga xizmat qiladigan, so’zlovchining tinglovchiga bo’lgan munosabatini ifodalaydigan, o’zida turli modal ma’nolarni tashiydigan o’tkir, tasirchan vositadir. Mumtoz badiiyat ilmida murojaat birliklari nido va iltifot san’ati doirasida o’rganilgan. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniadi.

Qilmishingdan, zohid, uyatdir, uyat!

Chunki tiling boshqa, boshqadir niyat!

Nim tovus, nim kaklik vujuding, zohid,

Oyog’ing goh chipor, goh qirmiz illat!

Ushbu ruboiydagi “zohid” so’zi muloqot maqsadi uchun “tramplin” vazifasini bajargan. Ruboiyning yaratilishidan maqsad ilmni o’rganib va boshqalarga o’rgatib o’zi esa unga amal qilmaydigan, tili boshqa so’zni so’zlaydigan, niyati esa boshqa bo’lgan zohidlarga murojaat qilib ularni qoralashdir. Ularni yarmi tovus yarmi kaklik bo’lgan qushga o’xshatadi. Bir oyog’ini chipor va bir oyog’ini qirmiz deb ataydi.

Ey ishq, nechuk o’tsan, axir, duding yo’q,

Ey g’am, nechuk kuysankim, suruding yo’q,

Ey istak, nechuksan, tutqich bermaysan,

Ey shodlik, nechuksankim, vujuding yo’q.

Bunda shoir ishqqa, g’amga , istak va shodlikka murojaat qilyapti. Ishqni istakka, g’amni esa shodlikka zidlamoqda. Ishqni tutuni yo’q olovga, g’amni ohangi yo’q kuyga, istakni tutqich bermas shamolga, shodlikni esa vujudi yo’q jismga o’xshatmoqda. Ko’rib turibmizki, ruboiyni yaratgan shaxs unda o’z ichki sezgi va tug’yonlarini ifodalagan va bu murojaat birliklari yordamida yuzaga chiqqan. Ushbu vosita yordamida hosil qilingan har qanday matn muallifga o’z subyektiv munosabatini tiniqroq ochib berishga yordam beradi. Kitobxonda ham ma’lum bir munosabat uyg’onadi.

Olmoshlar ham matn qismlarini bog’lovchi vositadir. Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so’z keyingi komponentlarda olmosh so’zlar bilan almashtiriladi. Pahlavon Mahmud ruboilarida ham buni ko’rishimiz

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

mumkin. Olmoshlar bir vaqtning o’zida matn qismlarini bog’laydi hamda bir so’zning bir necha marta takrorlanishini oldini oladi:

Hamma meni bir ovozda qilgay g’iybat,
Tinchimni buzar bu hol bo’lar toq toqat.
Bu toifa goh yaxshi deyar, gohi yomon
Chunki bir-ikki fanda topibman shuhrat.

Bu matnda qo’llangan olmoshlar ikkinchi va uchinchi misralarda qo’llanilgan bu so’zlaridir. Ikkinci misrada qo’llanilgan bu olmoshi birinchi satrda qo’llanilgan butun bir gapga ishora qilmoqda. Natijada bir vaqtning o’zida ikki gap bir-biriga bog’lanmoqda va takrorning oldi olinmoqda. Uchinchi satrdagi bu olmoshi birinchi satrda nazarda tutilgan g’iybat qiluvchilarga ishoradir. Olmoshlar yordamida bog’langan bir necha na’munalarni quyida ko’rishimiz mumkin:

Ko’zgumga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tiniq bo’lgan bir mahal,
Shuncha ko’p ko’rindi o’z aybimki, men
O’zgalar aybini unutdim tugal.

Yoki:

Olam fili qaytarolmas jur’atimiz,
Charxdan zo’rroq, qudratimiz, shavkatimiz,
Gar chumoli kirib qolsa safimizga,
Sher etajak uni darhol davlatimiz.

Ushbu ruboilylardagi unga va uni so’zlari matn qismlarini bog’lash vazifasini bajargan.

Matnda bir xil qo’llanilgan bir necha kesimlik shakllari matn tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi.

Bu boqqa bahor kelgusi-yu ketgusidir,
Bu shohga anor kelgusi-yu ketgusidir,
Bir ish boshini tutki, jahonga inson
Nahotki, bekor kelgusi-yu ketgusidir.

Kesimlik shakllarining bir xil shaklda qo’llanilishi mazmunning ham matnning ham butunligiga xizmat qilibgina qolmay, ohangdorlikni ham hosil qiladi.

Pahlavon Mahmud ruboilylaridagi matn qismlarini bog’lovchi vositalar o’zining funksional vazifasidan tashqari badiiy vazifani ham bajarib keladi. Bu vositalar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

ruboiylar matni tarkibida kelib o’ziga xos ohangdorlikni hosil qilgan, uning o’qilishliligini oshirgan, ekspressiv va uslubiy bo’yoqdorlikni taminlagan.

Ruboiylar matnidagi ohangdorlikni taminlovchi vositalar juda keng imkoniyatlarga ega. Malumki, ruboiy aruz vazni hazaj bahrining axram va axrab tarmoqlarida yoziladi. Aruz vazni mezoni esa ohangdorlik, musiqiylikdir. Bu ohangdorlikka tovushlarni, ya’ni fonetik-fonologik vositalarni matn tarkibida qo’llash orqali erishiladi. Pahlavon Mahmud ruboiylarida fonetik-fonologik vositalardan juda unumli foyadalanilgan. Bularni alliteratsiya va assonans misolida ko’p ko’ramiz. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda alliteratsiyaning o’rni beqiyosdir. She’riy nutqda misralar, undagi so’zlar hamda bo’g’inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo’llanilishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo’llanib kelingan. Ko’hna badiiyatshunoslikda alliteratsiya “tavzi” san’ati deb atalgan. Ruboiylar yaratilishida bunday vositalar juda ko’plab uchraydi. Masalan,

Dilim yana dilbar domiga tushdi,
Ne dilbar, sitamgar domiga tushdi,
Birining bandidan qutulmay hanuz
Boshqa pari paykar domiga tushdi.

Ushbu misolda d, b, r undoshlarining takrorlanishi natijasida hosil qilingan alliteratsiyani kuzatishimiz mumkin. Bunday misollarni Pahlavon Mahmud ruboiylaridan ko’plab topishimiz mumkin:

Dilbarimga dedim: ey go’zal, tannoz,
Nechun siniq chiqar og’zingdan ovoz?
Dediki: tor og’zim so’zni sig’dirmay,
Ushatib-ushatib chiqarar oz-oz.

Bu shoirning z, d, r alliteratsiyali she’ridir.

Yana:

Ulusga qayg’urur shoh emas, darvesh,
Zero u darveshdir, darveshdir, darvesh.
Buzuq devorlardan tashvish bor, lekin,
Siniq ko’ngillardan ko’prokdir tashvish.

Yuqoridagi ruboiyda esa sh, v, r, d undoshlari takrorlanib kelgan.

Ruboiy matnida uchraydigan intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsiyal-ekspressivlikni taminlagan vosita- assonans ham bor. Assonans aynan yoki yaqin

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo’ladi va asosan qofiyadosh so’zlar tarkibida kelib, she’riy nutqqa ko’tarinki va o’ziga xos musiqiylik baxsh etadi:

Rozililing, zohid, raddan battarraq,
Hamma ishing baddir, baddan battarraq,
Kofirsan-ku! Nega: “Mo’minman!”- deysan?
Sendek mo’min, bil, murtadddan battarraq!

Bu a unlisidan hosil qilingan assonans edi. Quyida u va i unlili assonansni ham ko’rshimiz mumkin:

Ishq biyobonida yurmoq ham mushkul,
Undan oyoq yig’ib turmoq ham mushkul,
Hammadan mushkulroq shuki, har joyda
Yoring ma’lum, lekin ko’rmoq ham mushkul.

Va:

Ma’rifatning tili – cholg’u- noyimdir,
Aqlim- qilich, so’zim o’q-u yoyimdir,
Imtiyozlar mulkin sohibi bilurkim,
So’z maydoni- ishg’ol qilgan joyimdir.

XULOSA

Pahlavon Mahmud ruboilyaridagi teran mazmun va ularning lisoniy jihatlari bir biriga uyg’un tarzda juda pishiq badiiy topilmalarni hosil qilgan. Bunda leksik- semantik, fonetik-fonologik, leksik-grammatik vositalardan o’rinli hamda unumli foydalanilgan. Bunda takrorlar, epifora, qo’shimchalar takrori, murojaat birliklaridan nido va iltifot san’ati, matn qismlarini bog’lash uchun ishlatilgan olmoshlar va kesimlik shakllari, alliteratsiya va assonans kabilarni yuqorida tilga olib o’tdik. Ruboilyarning lisoniy va mazmuniy xususiyatlarini yanada ochib berish mumkin. Pahlavon Mahmud ruboilyari mana shu xususiyatlari bilan xalqimizning dilidan joy olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pahlavon Mahmud. Ruboilyar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent-1979
2. Jasurbek Mahmudov. Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy. O’zbekiston NMU-2017
3. <https://kh-davron.uz>. Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy